



**JAMIYATDA AYOLLARNI HUQUQLANI HIMOYA QILISH, GENDER
TENGLIGINI TA'MINLASH VA ULARGA KENG IMKONIYATLAR
YARATISH**

Z. J. Omonboyeva

*Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya
universiteti "Xalqaro huquq"
fakulteti 1-kurs talabasi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada bugungi kundagi global miqyosda e'tirof etilayotgan dolzarb ijtimoiy muammolardan biri bo'lgan ayollarga nisbat zo'ravonliklar haqida va "Ayollarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish", ularga davlat tomonidan yaratilayotgan bir qancha imoniyatlar haqida so'z yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *Gender tengligi, normativ huquqiy hujjatlar, prezident farmonlari va qarorlari.*

Hozirda butun yer yuzi bo'ylab yuzaga kelib, hatto yanada jiddiylashib borayotgan muammolardan biri bu ayollar qadrsizlanishi, tazyiq va zo'ravonlikka uchrashi va huquqlarini poymol qilinishidir. Jamiyatda ayollarga past nazar bilan qaraydiganlar ham yo'q emas, ayollarni o'ldirish, ularga tahdid qilish, kaltaklash hodisalari ham kuzatilmoqda. Jamiyatda ayollarning teng huquqliligini ta'minlash maqsadida gender tengligi g'oyalari ilgari surildi. Bugungi kunda davlatimiz rahbari tomonidan olib borilayotgan kuchli siyosatni asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanib kelayotgan Xotin-qizlarni himoya qilish ularni huquqiy ongini, huquqiy madaniyatini, jamiyat o'rtasidagi o'z o'rnini, rolini egallab anglab yetishi, hamda kundan kunga rivojlanib kelayotgan xalqimiz orasida Gender tengligini aholiga tadbiq qilish masalalari yo'lga qo'yilmoqda. Har bir ayol ilm-fan bilan shug'ullanishga, o'zining sevimli kasbi bilan cho'qqilarni zabt etishi uchun barcha sharoitlardan unumli foydalanishi mumkin va barcha sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlarning faol tashabbuskor ishtirokchisi ekanini huquqiy asoslab bermoqda.

Yangi tahrirdagi konstitutsiyamizning ham **58-moddasida** keltirib o'tilgan. Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar.

Davlat xotin-qizlar va erkaklarga jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishda, shuningdek jamiyat va davlat hayotining boshqa sohalarida teng huquq va imkoniyatlarni ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 58-modda





Jamiyatdagi insonlarni tarbiyalashda ayollarning o'zni katta va ular kelajak avlodni tarbiyalovchi, dunyoga keltiruvchi shaxslar va barkamol avlodning erkin, sog'lom o'sishida ayollarning hissi katta. Ba'zi bir oilalarda o'z xotinini tazyiq, kaltaklash kabi holatlar ham kuzatiladi. Buning natijasida ayollarda bo'lgan ishonch, sevgi kamayib boradi. Bunday zulmlarga chidash yoki ko'z yumib ketish orqali o'ziga bo'lgan ishonchi va hayotiga bo'lgan qiziqishi so'nadi, bunday ishlarga ko'z yumish orqali o'ziga jabr olib keladi va o'zing psixologiyasi ta'sir qiladi. Buning oqibatida zulm shunga o'xshash holatlarga dosh bera olmay, o'z joniga qasd qilish kabi ayanchli holatlar yuzaga keladi. Har bir ayol o'z huquqlaridan to'g'ri foydalanishga va ularni himoya qilish huquqiga ega va zarur paytlari ya'ni shunday ayanchli vaziyatlarda tegishli organlarga va tashkilotlarga murojaat qilishi ham mumkin. Bular barchasi davlat tomonidan nazoratga olinib, himoya qilinadi va zarur shart-sharoitlar yaratib beriladi. Ayol va erkakning tengsizligi butun jamiyatga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Birinchi prezidentimiz ham I.A.Karimov ta'kidlaganidek "Bir ayolni tarbiyalash unga ilm berish, bir butun oilani tarbiyalash demakdir". Ayollarni qancha himoya qilsak qanchalik qadrlasak shuncha oz.

<https://constitution.uz>

https://www.google.com/url?sa=t&source=web&rct=j&opi=89978449&url=https://www.xabar.uz/uz/mahalliy/ayol-va-erkak-teng-huquqli-bolgan-jamiyat-quramiz&ved=2ahUKEwiS3OPf3sWKAxUiPxAIHQ6UJgMQFnoECDYQAQ&usg=AOvVaw1FRwb_mjpYMKGDENi7tIW

Vatanimiz taraqqiyotida, oila va jamiyat hayotida xotin-qizlar muhim o'rin va mavqega ega ko'plab sharoitlar yaratib berilmoqda. Har bir ayol o'z huquqlarini himoya qilishni bilish va ijtimoiy hayotda faolligini oshirish va gender tengligini amalga oshirishi zarur.

Davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev tomonidan Ayollarni himoya qilish ularga ijtimoiy yordamlar berish, sohalarda ayollar rolini oshirish maqsadida bir qancha farmonlar, normativ huquqiy hujjatlar qabul qilinmoqda. Shu jumladan Respublikada oila va xotin-qizlarga oid davlat siyosatini yangi bosqichga olib chiqish, ularning muammolariga tizimli yechim topish, vakolatli organlar faoliyatini samarali tashkil etish va muvofiqlashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 1 martdagi "Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniyatlarni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-81-sonli Farmoni hamda "Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-146-sonli Qaroriga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi, uning Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar boshqarmalari va tuman (shahar)



bo'linmalari tashkil etildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni qabul qilindi.

Ayollarni rag'batlantirish maqsadida ko'krak nishonlari ta'sis etildi. Bularga "Mo'tabar ayol" nomli ko'krak nishonini keltirishimiz mumkin. Ushbu ko'krak nishoni bilan jamiyatda o'z faolligini va tashabbuskorligini ko'rsatgan, o'z mehnati bilan oilani mustahkamlanishiga, onalik va bolalik muhofazasiga o'z hissanini qo'shgan, farzand tarbiyasiga e'tiborli bo'lgan jonkuyar va ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalayotgan, o'z ibratli faoliyatini olib borgan onalar davlatimiz tomonidan taqdirlanadi. Va hozirda shunday imkoniyatlar yaratilmoqda, xotin-qizlarning kontrakt puli davlat tomonidan to'lab berilmoqda. Davlat ishlarida ham ayollarga bo'sh ish o'rinlari ajratilmoqda va ayollar o'z faoliyatlarini olib bormoqda.

https://www.google.com/url?sa=t&source=web&rct=j&opi=89978449&url=https://www.gazeta.uz/oz/2023/03/08/women/&ved=2ahUKEwj89IjC_8SKAxV2JxAIHcNpL_YYQFnoECBoQAAQ&usg=AOvVaw0JFkYn-86yeEecIzCez1WP

https://www.google.com/url?sa=t&source=web&rct=j&opi=89978449&url=http://uzmarkaz.uz/en/news/xotin-qizlarni-tazyiq-va-zoravorlikdan-himoya-qilish&ved=2ahUKEwj0moukp8KKAxWKFRaiHW_NGKwQFnoECBEQAAQ&usg=AOvVaw1ebWS7-1XGDQWWUz0SQ0vu

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlis Senatining yigirmanchi yalpi majlisidagi nutqida xalqaro talablar doirasida xotin-qizlar ahvolini tubdan yaxshilashga doir qonun ijodkorligi faoliyatida faollik va tashabbuskorlikni oshirish zarurligini ta'kidlagandi. Davlat rahbarining bu boradagi topshiriqlari hamda 2019-yil 7-martda qabul qilingan "Xotin-qizlarning mehnat huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori ijrosi doirasida "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi qonun loyihasi tayyorlandi. Qonun loyihasi Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi, O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi va Adliya vazirligi tomonidan ishlab chiqildi. Ushbu qonunning maqsadi barcha xotin-qizlarni turmushda, ish joyida, ish joyida va boshqa joylarda tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan. Loyihada shunday vaziyatlarni oldini olish, bunday qilmishlarni sodir etganlarni javobgarlikka tortish hamda jabr ko'rganlarni himoya qilish, bunday vaziyatlarni oldini olish va jamiyatda ayollarga bo'lgan hurmat, mehr-oqibatni oshirish kabi g'oyalar nazarda tutilgan.

<https://www.google.com/url?sa=t&source=web&rct=j&opi=89978449&url=http://nhrc.uz/oz/news/byl-obsuzhden-zakonoproekt-o-zaschite-zhenschin-ot->



domogatelstv-i-nasiliya&ved=2ahUKEwih-eyshcWKAxV4HhAIHU2LD1AQFnoECDgQAQ&usg=AOvVaw3Oz8Pn8lFp4F4QxsCLUMQe

Ayollar huquqlari haqida ham Xalqaro hujjatlarda ham keltirib o'tilgan. Xotin-qizlar huquqlari masalasi inson huquqlarining ajralmas qismi, sivilizatsiyaning eng muhim yutuqlaridan biridir. Inson huquqlari hamda xotin-qizlar haq-huquqlarining tan olinishi uchun xalqaro miqyosdagi harakatlar tarixida muhim bosqich Ikkinchi jahon urushidan so'nggi yillarda boshlandi. 1945-yil iyun oyida urush yakun topgach, Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan 1948-yilning 10-dekabrida inson huquqlari xartiyasi Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasini qabul qilindi. Ushbu hujjatning ikkinchi moddasida Deklaratsiyada bayon qilingan huquq va erkinliklarga irqi, terisining rangi, jinsi, tili, e'tiqodi, siyosiy yoki boshqa qarashlari, milliy yoki ijtimoiy kelib chiqishi, mulk, tabaqa yoki boshqa mansubiyatidan qat'i nazar, barcha insonlar teng ravishda egaligi qayd etilgan bo'lib, u hozirda milliy va xalqaro antidiskriminatsion qonunchilikka asos sanaladi. BMT tomonidan Ayollarga nisbatan diskriminatsiyani bartaraf etish deklaratsiyasi (1967 y.) hamda Ayollarga nisbatan diskriminatsiyaning barcha shakllarini bartaraf etish haqidagi konvensiya (1979 y.) qabul qilingan. Aynan ikkinchi hujjatda ayollarning kollektiv va individual huquqlari himoyasi masalasiga kuchliroq urg'u berilgan. Xususan, 1979-yilgi Konvensiyaning 1-moddasiga muvofiq, "ayollarga nisbatan diskriminatsiya" tushunchasi jins belgilari asosida, xotin-qizlarning, oilaviy ahvolidan qat'i nazar, ayol va erkak tengligiga tayanib, insonning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, fuqarolik va boshqa sohalardagi huquqlari va asosiy erkinliklaridan foydalanishiga to'sqinlik qilish, ularni tan olmaslikka qaratilgan har qanday cheklov yoki taqiqni bildiradi".

<https://www.google.com/url?sa=t&source=web&rct=j&opi=89978449&url=http://nhrc.uz/oz/articles/aellarning-a-uulari-halaro-tazhriba&ved=2ahUKEwiV4oat5sWKAxUxGxAIHdHcHkkQFnoECBMQAQ&usg=AOvVaw0H3PvPVOHPHNI uC5dH GL>

Ayollarni jamiyatda teng huquqliligini ta'minlash zarur. Ularga nisbatan qilingan har bir zo'ravonlik, tazyiq va shunga o'xshash ayovsiz qilmishlarni oldini olish zarur. Jamiyatda ayollarning o'zni muhim hisoblanib, ular o'z haq-huquqlaridan erkin foydanish huquqiga ega.